



Qarz yuki tahlili va xatarlar

Mart 2022

Mundarija

Qisqa xulosa.....	2
Kirish	4
1. Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati	4
2. Jami kreditlarning YaIMga nisbati	8
3. Tarmoqlar bo'yicha tahlil.....	13
4. Jismoniy shaxslar bo'yicha kredit yuki	14
5. Muammoli kreditlar (NPL)	17
6. Qarzdorlar soni bo'yicha tahlil.....	19

Qisqa xulosa

O'zbekistonda qarz yuki bo'yicha joriy holat iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha mamlakatimiz bilan bir guruhga kiruvchi davlatlarning ko'rsatkichlari doirasida shakllangan bo'lsada, xususiyl sektorga ajratilgan kreditlar yuki Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining (MDH) aksariyat mamlakatlariga nisbatan yuqori ko'rsatkichni qayd etgan.

So'nggi yillarda umumiy qarz yuki va uning alohida tarkibiy qismlarida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Xususan, xususiyl sektorga ajratilgan kreditlarning yalpi ichki mahsulot (YalM)ga nisbati ko'rsatkichi umumiy dinamikadan yuqori saqlanib qolmoqda.

Qarz yuki bo'yicha tahlillar O'zbekistonda moliya tizimiga ta'sir ko'rsata oladigan bir qator xatarlar mavjudligini ko'rsatdi.

Jumladan, O'zbekistonda kreditlarning YalMga nisbati 25 (eng past chegara) va 75 (eng yuqori chegara) protsentil chegaralari doirasida solishtirilgan davlatlar ko'rsatkichlariga nisbatan tezroq sur'atda oshish va kelajakda ushbu o'sish darajasining saqlanib qolish ehtimoli mavjud. Mazkur ko'rsatkichning xavfli hududga o'tishi (75 protsentildan yuqori bo'lishi) tizimli moliyaviyl zaifliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shuningdek, har bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan shartnomalar soni ya'ni bir mijozning kredit olish koeffitsiyenti o'rtacha 1,2 ni tashkil etayotganligini hisobga olinsa, kredit oluvchilar sonining ko'payib borayotganligi kelgusida ham qarz yukining nisbatan tezroq oshishini anglatadi. Bundan tashqari, mijozning kredit olish koeffitsiyenti birdan yuqoriligi alohida kredit oluvchilar bo'yicha qarzdorlik yuki yuqori bo'lishi hamda xatarli ssenariyl holatida tizimli xatarlarga olib kelishi mumkinligini anglatadi.

Aholining kam ta'minlangan qatlami ulushining (Kovid-19 pandemiya davrini inobatga olmaganda) kamayib borishi va ularning yuqoriroq daromadga ega bo'lgan qatlamlarga o'tishi kredit olishga layoqatli aholining ko'payishiga olib keladi. Bu esa, kreditga bo'lgan talabning oshishi natijasida aholining qarz yuki darajasining ko'payishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Aholi iste'mol kreditlarining YalMga nisbati tahlilida faqatgina banklar tomonidan iste'mol uchun ajratilgan kreditlar hisobga olinganligi sababli ushbu ko'rsatkich atiga 2 foizni tashkil etmoqda. Bunda, chakana savdo do'konlarida iste'mol tovar va xizmatlarini muddatli to'lov asosida sotib olish

amaliyotining kengayayotganligi aholi tomonidan banklardan iste'mol kreditini olishga bo'lgan talabning o'zgarishsiz qolayotganiga olib kelgan bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, banklar tomonidan berilayotgan avtokreditlar bo'yicha statistika bank tizimidan tashqaridagi birlamchi hamda ikkilamchi bozorlarda muddatli to'lov asosida avtoulavlar savdosi to'g'risidagi ma'lumotlarni qamrab olmagan. Bank tizimidan tashqari muddatli to'lov asosida amalga oshirilgan bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarning kredit byurolarga jo'natilmasligi sababli kredit tashkilotlari tomonidan ajratilgan kreditlar ko'rsatkichi aholining qarz yuki darajasini aniq tasvirlab bera olmaydi. Ushbu holat, aholining iste'mol tovar va xizmatlari bo'yicha bank tizimidan tashqaridagi moliyaviy majburiyatlarini ham inobatga olganda, ular bo'yicha qarz yuki ko'rinayotgan darajadan yuqori bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda uy-joy qurilish ishlarining jadallashuvi ko'chmas mulkning birlamchi bozorida muddatli to'lov asosida uylar xarid qilish imkonini berdi. Bu esa, jismoniy shaxslarning bank tizimidan tashqaridagi ko'chmas mulkni xarid qilish bo'yicha qarzdorligi shakllanishiga olib kelmoqda. Bu, o'z navbatida, aholining bank ipoteka kreditlari bo'yicha qarzdorligiga (YalMga nisbatan 5 foiz) qo'shimcha moliyaviy majburiyatlarni vujudga keltirmoqda.

Aholining ortiqcha qarz yuki ularning daromadlarining asosiy qismini kreditlarni qaytarish uchun sarflanishi va natijada, kelajakda iste'mol xarajatlari o'sishining cheklanishiga olib keladi. O'z navbatida, aholi daromadlarining pasayishi esa muammoli kreditlarni yuzaga keltirishi va bank tizimi moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda qarz yuki tahlili faqatgina moliya tizimining statistik ko'rsatkichlari bilan cheklanib qolmaydi. Turli xil so'rovlar o'tkazish orqali iqtisodiyotdagi qarz yuki darajasini aniqroq baholab boriladi. Kelgusida aholi va biznes vakillari o'rtasida so'rovlar o'tkazish orqali iqtisodiyotdagi umumiy qarz yuki darajasini atroflicha o'rganish ko'zda tutilgan.

Kirish

Qarz yuki darajasi moliya tizimi barqarorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. 2007–2008-yillardagi jahon moliya inqirozining asosiy sabablaridan biri sifatida qarz yukining yuqori sur'atlarda oshishi e'tirof etiladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda kuzatilayotgan makroiqtisodiy tendensiyalar qarz yuki ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish hamda ular bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni aniqlashni taqozo etmoqda.

Qarz yuki ko'rsatkichlari turlicha tasniflanib, iqtisodiyotga yoki aynan xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati, jismoniy shaxslarga berilgan kreditlarning YaIMga yoki aholi ixtiyoridagi daromadlariga nisbati kabi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.


1. Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati

Xalqaro tadqiqotlarda¹, aholi jon boshiga YaIMning qiymati hamda xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati orasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. 2020-yilgi ma'lumotlar asosidagi tahlillar, rivojlangan mamlakatlar bo'yicha YaIMning aholi jon boshiga qiymatiga mos ravishda xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati darajasining ham shakllanayotganini ko'rsatgan.

Rivojlangan mamlakatlarda mazkur ko'rsatkichning balandligi moliyaviy vositachilik xizmatlari va moliya bozori instrumentlarining rivojlanganligi hamda moliyaviy inklyuzivlik (ommaboplik) darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi.

¹ Egert, B., Backe, P., Zumer, T. Credit growth in Central and Eastern Europe: New (over) shooting stars? ECB Working Paper, No. 687.

1-rasm. Dunyo mamlakatlari bo'yicha xususiyl sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati hamda aholi jon boshiga YaIM, 2020-yil²



Manbalar: Jahon banki va Markaziy bank.

O'zbekistonda xususiyl sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati 36 foizni tashkil etib, mutanosiblik chizig'i atrofida va o'rta daromadli mamlakatlarning pastki pog'onadagilari³ bo'yicha ko'rsatkichlariga juda yaqin hamda asosiy to'plam ichida joylashgan.

O'rta daromadga ega yuqori pog'onadagi mamlakatlar⁴ bo'yicha xususiyl sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati ko'rsatkichi o'rtacha 144 foizni tashkil etib, yuqori darajada shakllangan.


O'z navbatida, o'rta daromadga ega pastki pog'onadagi mamlakatlarning ko'rsatkichlari to'plamida O'zbekiston mutanosiblik chizig'i yoki trenddan chetlashgan bo'lib, uning yuqori qismida joylashgan.

² 170 ta mamlakat ko'rsatkichlari qamrab olingan.

³ 2021-yil 1-iyul holatiga Jahon banki tomonidan mamlakatlarning daromadiga ko'ra tasniflashda o'rnatilgan mezonga asosan o'rta daromadli mamlakatlarning pastki pog'onadagilar guruhiga yalpi milliy daromad (YaMD)ning aholi jon boshiga qiymati 1046–4095 AQSh dollari oralig'ida bo'lgan 55 ta davlat, xususan O'zbekiston ham kiritilgan.

⁴ 2021-yil 1-iyul holatiga Jahon banki tomonidan mamlakatlarning daromadiga ko'ra tasniflashda o'rnatilgan mezonga asosan o'rta daromadli mamlakatlarning yuqori pog'onadagilar guruhiga YaMDning aholi jon boshiga qiymati 4096–12695 AQSh dollari oralig'ida bo'lgan 55 ta davlat kiritilgan.

2-rasm. O'рта daromadli mamlakatlarning pastki pog'onadagilari bo'yicha xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati hamda aholi jon boshiga YaIM, 2020-yil



Manbalar: Jahon banki va Markaziy bank.


2020-yil ma'lumotlariga ko'ra xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbatining o'rtachasi jahon bo'yicha 150 foiz, yuqori daromadli mamlakatlar⁵ bo'yicha 167 foiz, o'рта daromadga ega bo'lgan pastki pog'onadagi mamlakatlar bo'yicha 42 foiz, MDH mamlakatlari bo'yicha 37 foizni tashkil etgan.

O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich o'рта daromadga ega bo'lgan pastki pog'onadagi mamlakatlarning o'rtachasidan bir oz pastroq va MDH mamlakatlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichiga juda yaqin joylashgan. Iqtisodiy rivojlanishi jihatidan O'zbekistonga yaqin bo'lgan mamlakatlar orasida mamlakatimizda xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati ko'rsatkichining holatini protsentil chegaralari⁶ orqali ko'rish mumkin.

⁵ 2021-yil 1-iyul holatiga Jahon banki tomonidan mamlakatlarning daromadiga ko'ra tasniflashda o'rnatilgan mezonga asosan yuqori daromadli mamlakatlar guruhiga YaIMning aholi jon boshiga qiymati 12 696 AQSh dollaridan ko'p bo'lgan 80 ta davlat kiritilgan.

⁶ Jami ko'rsatkichlarning eng past va eng yuqori 25 foizlarini inobatga olmagan holda chegaralarni belgilash orqali aynan o'rganilayotgan ko'rsatkichning ushbu oraliqda joylashgan o'ri hamda mediana chizig'idan qanchalik chetlatganligini ifodalovchi vizual tahlil turi.

3-rasm. 2020-yilda dunyo mamlakatlari bo'yicha xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati, foizda




Manbalar: Jahon banki va Markaziy bank.

MDH mamlakatlari bo'yicha xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbatlarining 25 (eng past chegara) va 75 (eng yuqori chegara) protsentil chegaralari oraliq'ining kichikligi mazkur davlatlar bo'yicha ko'rsatkichlar bir-biriga yaqinligini anglatadi.


Mediana chizig'i mazkur oraliqning pastki chegarasiga yaqin joylashganligi esa, MDH bo'yicha aksariyat mamlakatlarning xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning yuki pastroq darajada shakllangan.

O'rta daromadli mamlakatlarning pastki pog'onadagilari bo'yicha xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati protsentil chegaralari orasidagi tafovutning kengligi ushbu davlatlar bo'yicha ko'rsatkichlarida tafovutlar mavjudligi bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, mediana chizig'i chegaralar o'rtachasida joylashganligi esa aholi jon boshiga YaIMning qiymati bilan xususiy sektorga ajratilgan kreditlar yuki o'rtasidagi mutanosiblik asosan normal taqsimotga ega ekanligidan dalolat beradi.

4-rasm. MDH davlatlari bo'yicha xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati, %



5-rasm. O'rta daromadli mamlakatlarning pastki pog'onadagilari bo'yicha xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati, %



Manbalar: Jahon banki va Markaziy bank.

2019-yildan keyingi davrda O'zbekiston MDH hamda o'rta daromadli pastki pog'onadagi mamlakatlar ko'rsatkichlari medianasidan yuqorilagan. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati ko'rsatkichining yuqori sur'atlarda o'sib borishi hamda davlatlar guruhining 75 protsentil chegarasiga tobora yaqinlashib borishini moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xatar sifatida qarash mumkin.


2. Jami kreditlarning YalMga nisbati

2017-yildan buyon O'zbekistonda iqtisodiyotga ajratilgan kreditlarning keskin o'sishini talab va taklif omillari orqali izohlash mumkin.


Bunda, mamlakatdagi valyuta bozorining erkinlashtirilishi, davlat dasturlari asosida hamda tashqi qarz hisobiga kredit ajratish amaliyotining jadallashuvi va moliyaviy qulaylik darajasining oshishi taklif tomondan oshiruvchi omillar bo'ldi.

Shu bilan birga, islohotlar natijasida biznes va iste'mol faolligining jadallashuvi talab tomondan iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar hajmining o'sishiga hissa qo'shdi.

6-rasm. Ayrim davlatlarda iqtisodiyotga ajratilgan jami kreditlarning YaIMga nisbatlari dinamikasi



7-rasm. Ayrim davlatlarda iqtisodiyotga ajratilgan jami kreditlarning YaIMga nisbatlari (2021-yil III chorak, foizda)



Manbalar: Jahon banki va Markaziy bank.


O‘zbekistonda 2020-yildan boshlab iqtisodiyotga ajratilgan jami kreditlarning YaIMga nisbatida 40-45 foiz oralig‘ida barqaror dinamika saqlanib turibdi.

2021-yil III choragida iqtisodiyotga ajratilgan jami kreditlarning YaIMga nisbati ko‘rsatkichi Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari⁷ bo‘yicha o‘rtacha 49 foiz va MDH mamlakatlari bo‘yicha esa o‘rtacha 43 foizni tashkil etdi. Pandemiya davrida Ozarbayjon, Armaniston, Gruzuya, Belarus, Rossiya kabi mamlakatlarda ushbu ko‘rsatkich bir oz ko‘tarilishdan so‘ng pasayish kuzatildi. Mazkur o‘zgarishlarni kreditlarni so‘ndirish sur‘atining keskin pasayishi hamda iqtisodiy o‘shishning sekinlashuvi bilan izohlash mumkin.


MDH hamda o‘rta daromadga ega pastki pog‘onadagi mamlakatlarda iqtisodiyotga ajratilgan jami kreditlarning YaIMga nisbati ko‘rsatkichlari bo‘yicha chegaralari 25 va 75 protsentil bo‘lgan oraliqda O‘zbekistonning ushbu ko‘rsatkichi yuqori protsentilga yaqinlashib borayotganligini ko‘rish mumkin.

⁷ Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlariga Armaniston, Gruzuya, Ozarbayjon, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston kiradi.

8-rasm. MDH mamlakatlari bo'yicha jami kreditlarning YalMga nisbati, %



9-rasm. O'rta daromadli mamlakatlarning pastki pog'onadagilari bo'yicha jami kreditlarning YalMga nisbati, %




25 va 75 protsentil chegaralari Mediana O'zbekiston

Manbalar: Jahon banki va Markaziy bank.

Odatda, iqtisodiyotga ajratilgan jami kreditlarning YalMga nisbati tafovutiga moliyaviy zaifliklarning kuchayishi to'g'risida oldindan ogohlantiruvchi ko'rsatkich sifatida qaraladi.

10-rasm. Kreditning YalMga nisbati tafovuti⁸, foizda



Manba: Markaziy bank.


⁸ Jami kreditlarning YalMga nisbati tafovuti Hodrick-Prescott (HP) filtri orqali hisoblangan.

2017-yilning III choragidan 2019-yilning mos choragigacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda kreditlarning YaIMga nisbati bo‘yicha ijobiy tafovuti 2,5-7,1 foiz bandi oralig‘ida shakllanib, iqtisodiyotga salohiyatdan “ortiqcha” kreditlar ajratilganligini ko‘rish mumkin. Ushbu holat, “investitsion chanqoqlik”ni qondirishga yo‘naltirilgan tadbirlar bilan izohlanadi.

2021-yilda kreditlarning YaIMga nisbati tafovuti manfiy hududda shakllandi. Biroq, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan “xatarli ssenariy” hamda tez sur‘atlardagi iqtisodiy o‘shishning barqarorligi hozirgi davrdagi kreditlashning o‘shish sur‘atini uzoq vaqt davom etishiga to‘sqinlik qilishi hamda ijobiy tafovutni vujudga keltirishi mumkin.


O‘z navbatida, oxirgi vaqtlarda jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilayotgan kreditlarning bir xil sur‘atlarda o‘shib borayotganligi natijasida iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar dekompozitsiyasidagi ulushlar deyarli o‘zgarishsiz saqlanib qolmoqda.

11-rasm. Iqtisodiyotga ajratilgan kreditlarning dekompozitsiyasi (YaIMga nisbatan, %)



Manba: Markaziy bank.


12-rasm. Iqtisodiyotga ajratilgan kreditlarning choraklik o‘shish sur‘ati, %



Xalqaro amaliyotda odatda jami kreditlar tarkibida yuridik shaxslar ulushining yuqori (Qirg‘izistonda 79 foiz, Belarusda 73 foiz, Rossiyada 69 foiz, Moldovada 64 foiz, Armanistonda 57 foiz, Qozog‘istonda 53 foizni⁹) bo‘lishi kuzatiladi.


⁹ Ushbu mamlakatlar markaziy banklarining 2020-yil yakuni bo‘yicha rasmiy veb saytlari ma’lumotlari.

13-rasm. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining muddatlari bo'yicha tasnifi, trln so'm




Manba: Markaziy bank

14-rasm. Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining muddatlari bo'yicha tasnifi, trln so'm




Muddatlar kesimida jismoniy va yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning qariyb 43 foizi 1 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddatga to'g'ri kelmoqda. Jismoniy shaxslar uchun 15 yildan yuqori bo'lgan muddatga ajratilgan kreditlarning salmog'i oshib borishi kuzatilib, 2021-yil yakuniga ko'ra qariyb 36 foizga yetdi. Bu o'z navbatida, so'nggi yillarda ipoteka kreditlari hajmining oshishi bilan izohlanadi.

15-rasm. Tarmoqlar bo'yicha ta'minlanmagan kreditlar qoldig'i, trln so'm



Manba: Markaziy bank.

16-rasm. Kredit oluvchilar bo'yicha ta'minlanmagan kreditlar qoldig'i, trln so'm




5 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatga berilgan kreditlar yuridik shaxslarga ajratilgan jami kreditlarning 26 foizini tashkil etmoqda. Jismoniy shaxslarga ajratilgan muddati 1 yilgacha bo'lgan kreditlarning ulushi past, ya'ni 8 foizni tashkil etayotganligi kredit oluvchilarning inflyatsiya bo'yicha kutilmalari yuqoriligini ko'rsatadi.

Qarz yuki tahlilida kreditlarning ta'minlanmaganlik darajasi muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ta'minlanmagan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2022-yil 1-yanvar holatiga atigi 2,4 foizni tashkil etmoqda.


3. Tarmoqlar bo'yicha tahlil

O'zbekistonda iqtisodiyotga ajratilgan jami kreditlarning qariyb 35–40 foizi sanoat sohasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, ushbu sohaning YaIM tarkibidagi ulushi o'rtacha 23 foizni tashkil etadi. 2021-yilda sanoat sohasiga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati 16 foiz atrofida shakllangan.

17-rasm. Iqtisodiyotga ajratilgan kreditlarning tarmoqlar bo'yicha dekompozitsiyasi, %



18-rasm. YaIMning tarmoqlar bo'yicha dekompozitsiyasi, %



Manbalar: Markaziy bank va Statistika qo'mitasi.


Iqtisodiyotga ajratilgan jami kreditlar tarkibida qishloq xo'jaligi sohasi kichik ulushni tashkil etsa-da, o'suvchi dinamikani namoyon etmoqda. 2021-yilda qishloq xo'jaligi sohasiga ajratilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 11 foizni tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 5 foiz bandga oshgan. O'z navbatida, qishloq ho'jaligiga ajratilgan kreditlarning ulushi kichik bo'lishiga qaramasdan, uning YaIMdagi ulushi 30 foizni tashkil etmoqda.

Sanoat sohasiga ajratilgan kreditlarning ulushi kattaligi ushbu sohada texnologiyalarni yangilash va zamonaviylashtirish uchun asosiy vositalar (mashina va uskunalarga) bo'lgan doimiy talabning yuqoriligi bilan izohlash mumkin. Qishloq xo'jaligida esa, asosan ishchi kuchiga ehtiyojning yuqoriligi va mavsumiyligi kreditga bo'lgan talabning pastroq ekanligini ko'rsatadi.


4. Jismoniy shaxslar bo'yicha kredit yuki

O'zbekistonda jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditlar qoldig'ining YaIMga nisbati 2018-yildan boshlab sezilarli o'sib kelmoqda. Moliya xizmatlari ommabopligini kengayishi hamda davlat dasturlari doirasida aholining keng qatlamiga moliyaviy ko'maklar berilayotganligi jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning jadallashuviga turtki bo'ldi. 2021-yilda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati 9,5 foizni, aholi ixtiyoridagi daromadlariga¹⁰ nisbati 14,4 foizni tashkil etdi.

19-rasm. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning YaIM va aholi ixtiyoridagi daromadiga nisbatlari, %



20-rasm. 2020-yilda ayrim mamlakatlarda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati, %



Manbalar: Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ), Markaziy bank va Statistika qo'mitasi.


O'zbekistonda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati Rossiya, Qozog'iston, Armaniston, Gruziya kabi mamlakatlarga nisbatan pastroq darajada shakllangan. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonda chakana kredit bozori hali to'yinmaganligi bilan izohlanadi.

¹⁰ Aholi ixtiyoridagi daromadlar – jismoniy shaxslarning daromadlaridan soliqlar chegirib tashlangan qismi.


Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning turlari bo'yicha YaIMga nisbatlarida ipoteka kreditlari bo'yicha ko'rsatkichlar yuqori shakllangan. 2022-yil 1-yanvar holatiga jismoniy shaxslarga berilgan ipoteka kreditlarining YaIMga nisbati 5 foizni tashkil etdi.

Ta'kidlash joizki, 2021-yilda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati oldingi o'sish trendidan so'ng bir maromda shakllanib, kredit turlari orasida tarkibiy o'zgarishlar kuzatildi.

21-rasm. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning turlari bo'yicha YaIMga nisbatlari, %



22-rasm. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning turlari bo'yicha qoldiqlari, trln so'm



Manba: Markaziy bank.


Uy-joy qurilishining jadallashuvi, ipoteka bozorining rivojlanayotganligi, aholi sonining tabiiy o'sishi hamda aholi tomonidan uy-joyga bo'lgan kechiktirilgan talabning qondirilishi jismoniy shaxslarga ajratilayotgan ipoteka kreditlarining tez sur'atlarda o'sishiga omil bo'lmoqda.

Shuningdek, aholi tomonidan olinayotgan mikroqarzlarning qoldig'ining o'sishini moliyaviy qarzlarni naqd pul, bank kartalar yoki mobil ilovalari orqali osonlashtirilgan ravishda olish imkoniyatlarining kengayishi hamda ommabopligining oshishi bilan izohlash mumkin.


Bundan tashqari, so'nggi yillarda chakana savdo do'konlari tomonidan turli xil iste'mol mahsulotlarini muddatli to'lov asosida sotish amaliyotining ommalashayotganligi banklarning iste'mol kreditlari hajmida deyarli o'zgarish bo'lmaganligining asosiy sabablaridan biri sifatida qarash mumkin.

Jismoniy shaxslarning kreditga bo'lgan talabi ularning daromadlari hamda tabaqalanish darajasiga bog'liq. O'zbekistonda aholi daromadlarining 10 foizli guruhlari bo'yicha tasnifiga ko'ra eng yuqori ulush X detsil ya'ni eng yuqori daromadga ega bo'lgan aholi guruhiga hamda eng past ulushi esa I detsil ya'ni eng kam daromadga ega bo'lgan aholi guruhi hissalariga to'g'ri kelmoqda.

23-rasm. Aholi daromadlarining 10 foizli guruhlari bo'yicha taqsimlanishi¹¹, %



24-rasm. Kam ta'minlangan aholining¹² jami istiqomat qiluvchilardagi ulushi (%) va aholi daromadlarining 10 foizli guruhlari bo'yicha differentsiatsiya koeffitsiyenti¹³



Manba: Statistika qo'mitasi.

X detsil ko'rsatkichi 2007–2020-yillar davomida 5,2 foiz bandga pasayganligi hamda o'rta qatlamdagi detsillarning ulushlari oshganligi aholining daromadlari orasida notekis tabaqalanish qisqarayotganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, 2007–2019-yillar davomida differentsiatsiya koeffitsiyentining 13,7 dan 6 ga pasayishi kuzatildi va faqatgina 2020-yil Kovid-19 pandemiyasi davriga to'g'ri kelganligi sababli ushbu ko'rsatkich ozgina ko'tarilib, 6,9 ga yetdi. O'z navbatida, I detsilning pasayishi hamda X

¹¹ Aholi daromadlarining detsil bo'yicha taqsimoti eng kichik va eng katta daromadlari orasidagi farqni teng 10 ta guruhga ajratgan holda har bir guruhga to'g'ri keluvchi aholi sonining ulushlarini ko'rsatadi. Bunda, barcha detsil yig'indisi 100 foizga teng bo'ladi.

¹² 2022-yildan boshlab – oilaning har bir a'zosiga jami bir oylik o'rtacha daromad minimal iste'mol xarajatlari miqdoridan oshmaganda kam ta'minlangan deb e'tirof etiladi.

¹³ Aholi daromadlarining bo'yicha differentsiatsiya koeffitsiyenti X detsilning I detsil ko'rsatkichiga nisbati orqali topiladi.


detsilning oshishi natijasida differentsiatsiya koeffitsiyentining o'zgarishi O'zbekistonda aholi daromadlari tabaqalanishda tafovut kengayotganligi hamda kredit olishga layoqatli aholi sonining oshayotganligidan dalolat bermoqda.

Pandemiya davrini inobatga olmaganda kam ta'minlangan aholining jami istiqomat qiluvchilardagi ulushi pasayib bormoqda. Bu esa, O'zbekiston aholisi yildan yilga oshib borayotganligini inobatga olsak, o'rta va yuqori daromadga ega aholi sonining oshishi hamda ularning kredit olishga imkoniyatning paydo bo'lishi oqibatida kreditga bo'lgan qo'shimcha talabni yaratishi mumkin.


5. Muammoli kreditlar (NPL)

2021-yilda muammoli kreditlarning¹⁴ jami kreditlardagi ulushi sezilarli o'sdi va 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 5,2 foizni tashkil qildi. Ta'kidlash joizki, 2020-yil mart oyidan boshlab qat'iy karantin choralari joriy qilinishi natijasida iqtisodiyotning real sektoridagi faollikning pasayishi bank aktivlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

25-rasm. Davlat ulushi mavjud banklar va xususiy banklar bo'yicha muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, %



26-rasm. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi va kredit o'sishi, %




Manba: Markaziy bank.


¹⁴ Muammoli kreditlar — kreditlarning sifati «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar.

Shuningdek, banklar tomonidan to'liq aks ettirilmagan muammoli kreditlarning moliyaviy hisobotlarda to'g'ri yuritilishi ustidan Markaziy bank nazoratining kuchaytirilishi ham muammoli kreditlar ulushining o'sish tendensiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

27-rasm. Ayrim mamlakatlarning muammoli kreditlar dinamikasi, %



28-rasm. Ayrim mamlakatlarning muammoli kreditlari (2021-yil III chorak, %)




Manbalar: XVJ va Markaziy bank.

2021-yilning III choragi yakunlari bo'yicha muammoli kreditlar ulushining past daromadli rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha o'rtacha 9 foizni¹⁵, MDH hamda Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari bo'yicha o'rtacha esa 6 foizni tashkil etdi.

Pandemiya boshlanishi va qat'iy karantin cheklolari qo'llanilishi ta'siri ostida muammoli kreditlar ulushi dinamikasida yuzaga kelgan o'sish aksariyat davlatlarda 2020-yilning yakuniga qadar davom etdi. Biroq, regulyatorlar tomonidan taqdim etilgan bank kreditlari bo'yicha to'lovlarni ma'lum muddatlarga kechiktirish va boshqa shu turdagi imkoniyatlar muammoli kreditlar ulushi keskin oshishini sekinlashtirdi.

¹⁵ Past daromadli rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi bo'yicha muammoli kreditlar ulushining o'rtachasi ma'lumotlar mavjudligiga ko'ra 18 ta davlat (jami 59 ta davlat orasidan) bo'yicha hisob-kitob qilingan.

29-rasm. Tarmoqlar bo'yicha muammoli kreditlar, %



Manba: Markaziy bank.

Tarmoqlar kesimida sanoat sohasi va boshqa xizmatlar sohalarida muammoli kreditlar yuqori ulushni egallagan. 2021-yilning oxirgi choragida jami muammoli kreditlarning ulushi boshqa xizmatlar hamda savdo va umumiy ovqatlanish sohasidagi pasayish hisobiga 5,8 foizdan 5,2 foizga qisqardi.

6. Qarzdorlar soni bo'yicha tahlil

Kreditlar bo'yicha mijozlar soni hamda har bir mijozga to'g'ri keluvchi kredit shartnomalar soni kabi ko'rsatkichlar qarz yukini qarzdorlar bo'yicha miqdoriy tahlil qilish imkonini beradi.

2022-yil 1-yanvar holatiga kredit oluvchilar soni 2,8 mln.tani tashkil etib, shundan 96 foizi ya'ni 2,7 mln.tasi jismoniy shaxslar hisobiga to'g'ri kelgan. O'z navbatida, 2021-yil davomida kredit oluvchi jami mijozlarning soni 7 foizga oshgan bo'lsa, bunda jismoniy shaxslar soni 8 foizga o'sdi. Kredit oluvchi yuridik shaxslar sonida esa pasayish kuzatilib, 2021-yilda 11 foizga pasaygan.

30-rasm. Kredit oluvchilar soni, mln dona**31-rasm. Har bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan kredit shartnomalari soni**

Manba: Markaziy bank.

Kredit oluvchi jami mijozlar soni bilan kredit shartnomalari sonini taqqoslanganda, 2016–2021-yillar davomida ushbu ko'rsatkich yuqori darajalarda (1 dan yuqori) shakllanmoqda. Bu esa, ayrim qarzdorlarda ikki va undan ortiq kredit bo'yicha shartnomalar mavjudligidan dalolat beradi.

O'z navbatida, har bir yuridik va jismoniy shaxsga to'g'ri keluvchi shartnomalar sonining mos ravishda pasayishi va o'sishi ular orasidagi tafovutning qisqarishiga olib kelmoqda. Jumladan, bitta kredit oluvchi yuridik shaxsga to'g'ri keluvchi kredit shartnomalar soni 2018-yildan buyon pasayish trendiga ega bo'lib, 2021-yilda 1,4 taga yetgan. Har bir kredit oluvchi jismoniy shaxsga to'g'ri keluvchi kredit shartnomalar sonining 2021-yilda pasayishi kreditlar bo'yicha mijozlar sonining kamayishi hamda aholining qarz yuki o'sishini cheklash me'yori¹⁶ o'rnatilganligi bilan izohlash mumkin.

Har bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan kredit shartnomalar sonining 1 dan yuqoriligi alohida mijozlar bo'yicha hisoblangan qarz yuki darajasi jami ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati ko'rsatkichidan ancha yuqori bo'lishi mumkinligini anglatadi.

¹⁶ 2020-yildan boshlab qarz oluvchining kredit yoki mikroqarzlar bo'yicha o'rtacha oylik to'lovlari miqdorining uning o'rtacha oylik daromadi miqdoriga nisbati 50 foizdan oshmasligi kerak.